



**TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**

**Toshkent viloyatida
kichik tadbirkorlik
2022- yil yanvar-iyun**




Dastlabki ma'lumotlar


Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi **45,1** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **15,7** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **3663** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,0** foizga kam demakdir.

2022- yilning yanvar-iyun yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1311** ta, sanoatda **717** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **492** ta, yashash va ovqatlanishda **292** ta, qurilishda **230** ta, tashish va saqlashda **122** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Sanoat 15,4



Qurilish 80,9



Investitsiya 54,7



Savdo 69,7



Xizmatlar 67,9



Eksport 24,9



Import 46,2



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

46505




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

3663

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

33,5 %



Sanoat

20,1 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

12,4 %



Qurilish

8,5 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

8,3 %



Tashish va saqlash

3,8 %



Axborot va aloqa

1,4 %




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,6 %




Boshqa faoliyat turlari

10,4 %



1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y.

■ 2022- y.

■ (+;-)

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-iyunda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021 y. yanvar-iyun

■ 2022 y. yanvar-iyun

2022- yil yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota tumani – 9,9 %, Qibray tumani – 7,7 %, Toshkent tumani - 7,5 %, Chirchiq shahar – 6,1 %, O'rta Chirchiq tumani – 5,5 %, Bo'stonliq tumani – 5,2 %, Angren shahar - 4,8 % hissalariga to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda
1311 ta

Sanoatda
717 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
492 ta

Qurilishda
230 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 15,7 birlikni tashkil etdi.




Toshkent viloyatidafaoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-iyul holatiga ko'ra*



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida 31,8 birlik, Chirchiq shaharda 27,7 birlik, Qibray tumanida 24,8 birlik, Nurafshon shaharda 24,4 birlik, O'rta Chirchiq tumanida 19,1 birlikni tashkil etgan.



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida 31,8 birlik, Chirchiq shaharda 27,7 birlik, Qibray tumanida 24,8 birlik, Nurafshon shaharda 24,4 birlik, O'rta Chirchiq tumanida 19,1 birlik, Yuqori Chirchiq tumanida 18,4 birlik, Yangiyo'l shaharda 18,0 birlik, Toshkent tumanida 18,0 birlikni tashkil etdi.


Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich
Zangiota tumani
- 31,8 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Ohangaron shahar
- 15,9 birlik.

Past ko'rsatkich
Bekobod tumani
- 8,1 birlik.

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YAIMdagi ulushi, % da



2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 45,1 % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-iyunida 46,9 %).

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, % da


	Sanoat	Qurilish	Savdo	Investitsiya
Toshkent viloyati	15,4	81,1	69,7	54,7
Nurafshon shahar	26,5	95,7	26,0	16,2
Olmaliq shahar	1,4	18,4	85,4	2,5
Angren shahar	18,9	82,5	55,3	59,7
Bekobod shahar	2,0	99,0	87,2	81,8
Ohangaron shahar	31,3	96,2	93,5	51,8
Chirchiq shahar	19,5	95,7	62,9	17,3
Yangiyo'l shahar	52,8	99,7	94,7	64,8
Oqqo'rg'on tuman	20,9	99,8	98,1	92,8
Ohangaron tuman	9,2	93,0	98,1	85,1
Bekobod tuman	41,3	96,0	92,9	51,9
Bo'stonliq tuman	18,1	96,4	67,2	49,2
Bo'ka tuman	27,3	99,9	92,2	76,4
Zangiota tuman	74,9	72,5	45,9	57,8
Qibray tuman	16,8	72,5	84,2	91,1
Quyichirchiq tuman	60,6	100,0	95,4	81,5
Parkent tuman	91,2	91,0	97,2	88,5
Piskent tuman	33,8	100,0	91,1	93,0
O'rta Chirchiq tuman	38,4	99,1	84,7	51,3
Chinoz tuman	39,0	100,0	74,4	86,9
Yuqori Chirchiq tuman	69,9	89,2	92,3	88,5
Toshkent tuman	38,5	98,2	89,8	75,7
Yangiyo'l tuman	70,2	99,3	59,8	91,8

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 254,2 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 24,9 % ini tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Quyichirchiq tumanida – 99,8 %, Ohangaron tumanida – 99,8 %, O'rta Chirchiq tumanida – 99,3 %, Qibray tumanida – 97,6 %, Bekobod tumanida – 96,7 % va Yangiyo'l shaharda 92,5 % ni, eng past ko'rsatkich Olmaliq shaharda – 1,8 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **722,0** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **46,2** % ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bekobod tumanida – 100,0 %, Bo'ka tumanida – 98,1 %, Quyi Chirchiq tumanida – 97,3 %, Yuqori Chirchiq tumanida – 94,2 %, Chinoz tumanida – 94,1 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Bekobod shaharda – 0,3 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6728,9** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yuqori Chirchiq tumani (782,2 mlrd. so'm), Zangiota tumani (705,4 mlrd. so'm), Chirchiq shahar (633,2 mlrd. so'm), Toshkent tumani (591,8 mlrd. so'm) va Qibray tumani (460,1 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Bo'ka tumanida (65,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **15,4 %** ni tashkil etdi.


2022- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Parkent tumani (91,2 %), Zangiota tumani (74,9 %), Yangiyo'l tumani (70,2 %), Yuqori Chirchiq tumani (69,9 %), Quyri Chirchiq tumani (60,6 %), Yangiyo'l shahar (52,8 %), Bekobod tumani (41,3 %), Chinoz tumani (39,0 %), Toshkent tumani (38,5 %) va O'rta Chirchiq (38,4 %) tumanlari tashkil etdi. Olmaliq shaharda (1,4 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9515,7** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **69,7** % ini tashkil etib, oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,3** % ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani (**1474,6** mlrd. soʻm), Olmaliq shahar (**796,0** mlrd. soʻm), Qibray tumani (**683,3** mlrd. soʻm), Yangiyoʻl shahar (**636,6** mlrd. soʻm), Boʻstonliq tumani (**535,6** mlrd. soʻm), va Bekobod (**495,6** mlrd. soʻm) shaharlari hissasiga toʻgʻri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4546,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,9** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **111,6** % ni tashkil qildi.



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qibray tumanida (476,8 mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumanida (459,5 mlrd. so'm), Zangiota tumanida (447,7 mlrd. so'm), Quyi Chirchiq tumanida (325,1 mlrd. so'm), Nurafshon shaharda (309,8 mlrd. so'm), Chirchiq shaharda (253,0 mlrd. so'm) hamda O'rta Chirchiq (252,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




■ hajm, mlrd. so'm ● o'sish sur'ati, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati


Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi



2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8223,3** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,9%** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,4 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Zangiota tumani (700,0 mlrd. soʻm), Chirchiq shahar (671,0 mlrd. soʻm), Olmaliq shahar 601,0 mlrd. soʻm), Qibray tumani (575,1 mlrd. soʻm), Angren shahar (506,1 mlrd. soʻm), Boʻstonliq tumani (444,9 mlrd. soʻm) va Yangiyoʻl shahar (443,8 mlrd. soʻm) viloyatlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yilning yanvar-iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 17,5 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 117,4 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 51,8 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,1 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,0 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1689 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 521 (30,8%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1028 (60,9%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 140 (8,3%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 37,2 % (717 ta), xizmatlar sohasida – 27,4 % (529 ta), sanoatda – 20,1 % (387 ta) , qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,1 % (175 ta) va qurilishda – 6,3 % (122 ta) ni tashkil etdi.

2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (258 ta), Qibray (188 ta), Toshkent (147 ta), Chirchiq shahar (132 ta), Angren shahar (110 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 34,4%ni, sanoatda 32,5%ni, va xizmatlar sohasida 32,5%ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda 63,6 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 61,1 %ni, xizmatlar sohasida 59,4 %ni tashkil etdi.

2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 48,4%ni, xizmatlar sohasida 41,6%ni, sanoatda 41,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdo sohasida 55,7 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 55,6%ni, xizmatlar sohasida 52,9%ni tashkil etdi.

